

**GREEN YONDASHUVI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA
EKOLOGIK-TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI****Muxtoriy Mohro'yi Sodirzoda****Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)****m-muxtoriy@mail.ru****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18999651>****Annotatsiya**

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasining mazmuni, didaktik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Ekologik bilim, kuzatuvchanlik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tabiatga mas'uliyatli munosabat va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yechimlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: GREEN yondashuvi, ekologik-tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, tanqidiy tafakkur, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiya, ijodiy yondashuv, ekologik ong, o'quvchi faolligi.

Аннотация

В статье раскрываются содержание, дидактические возможности и практическая значимость технологии формирования экологически-критического мышления у учащихся начальных классов. Проанализированы педагогические решения, направленные на развитие экологических знаний, наблюдательности, умений анализировать проблемные ситуации, ответственного отношения к природе и навыков самостоятельного формулирования выводов.

Ключевые слова: GREEN-подход, экологически-критическое мышление, начальное образование, экологическое воспитание, критическое мышление, междпредметная интеграция, педагогическая технология, творческий подход, экологическое сознание, активность учащихся.

Abstract

The article elucidates the content, didactic possibilities, and practical significance of the technology for developing ecological-critical thinking in primary school students. It analyzes pedagogical solutions aimed at fostering ecological knowledge, observation skills, the ability to analyze problem situations, a responsible attitude toward nature, and the skills of drawing independent conclusions.

Keywords: GREEN approach, ecological-critical thinking, primary education, ecological education, critical thinking, interdisciplinary integration, pedagogical technology, creative approach, ecological awareness, student activity.

Ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayotiy muammolarga ongli yondashish, atrof-muhitga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, voqea-hodisalarni sabab-oqibat asosida tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Ekologik muammolarning global tus olayotgani, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning tobora murakkablashib borayotgani sharoitida yosh avlodda ekologik ong, ekologik madaniyat va ekologik-tanqidiy fikrlashni boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab shakllantirish zarurati kuchaymoqda. Shu nuqtayi nazardan GREEN yondashuvi boshlang'ich ta'limga yangicha mazmun, integrativ yo'nalish va amaliy samaradorlik olib kiruvchi texnologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv

o'quvchining tabiat, jamiyat, texnologiya, o'qish savodxonligi, kuzatish, tahlil qilish, solishtirish va baholash faoliyatini yagona didaktik makonda birlashtirib, ekologik mazmundagi bilimlarni tanqidiy tafakkur bilan uyg'un holda shakllantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda bola voqelikni ko'proq aniq obrazlar, sodda hayotiy misollar va bevosita kuzatuvlar orqali anglaydi. “Maktablar va jamoaviy ta'lim markazlari xabardorlikni oshirish, tanqidiy fikrlashni va barqarorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi”¹. GREEN yondashuvi aynan mana shu ehtiyojga javob beruvchi metodik asosdir, chunki u ekologik tarbiya bilan tanqidiy fikrlashni bir-biridan ajratmaydi, aksincha, o'quvchining nima uchun, qanday qilib, agar shunday davom etsa nima bo'ladi, qaysi yechim foydaliroq kabi savollar orqali tafakkurini faollashtiradi. Ekologik-tanqidiy fikrlash – bu o'quvchining tabiat va atrof-muhitga oid hodisalarni shunchaki qabul qilmasdan, ularni kuzatishi, ularning mohiyatini tushunishga intilishi, inson faoliyatining tabiatga ta'sirini baholashi, ekologik muammolar sabablarini anglashga urinishi va ularga nisbatan mas'uliyatli pozitsiya egallashidir. Bunday fikrlash turi boshlang'ich sinf o'quvchisida kundalik hayotiy holatlar, maktab va oiladagi ekologik vaziyatlar, tabiat manzaralari, chiqindi, suv, havo, daraxt, qush, hayvon, energiya tejamkorligi kabi unga yaqin tushunchalar asosida shakllanadi.

GREEN yondashuvi o'quv materialini alohida fanlar doirasida toraytirib qo'ymaydi. Aksincha, ona tili, o'qish savodxonligi, matematika, tabiatshunoslik, tasviriy faoliyat va mehnat elementlarini o'zaro bog'liq holda qo'llash orqali ekologik mazmundagi topshiriqlarni ko'p qirrali tahlil etishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchi bitta mavzuni turli nuqtayi nazardan ko'ra boshlaydi, u matnni o'qiydi, undagi ekologik g'oyani tushunadi, sonli ma'lumotlarni hisoblaydi, kuzatgan holatini tasvirilaydi, muammoni muhokama qiladi va o'z fikrini asoslashga harakat qiladi. Bu esa ekologik muammolarni idrok etishda asosli munosabat shakllanishiga olib keladi. GREEN yondashuvi vositasida ekologik-tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi aynan shu ikki tomonlama faollikni talab qiladi. Masalan, o'quvchilarga nega maktab hovlisida ayrim daraxtlar yaxshi o'smoqda, ayrimlari esa sust rivojlanmoqda, suvni ortiqcha ishlatish oilaga va tabiatga qanday zarar keltiradi, plastik chiqindilarni yerga tashlash nimaga olib keladi, agar qushlar kamayib ketsa, tabiat muvozanatida nima o'zgaradi kabi savollar berilganda, ular dalil keltirishga, kuzatganlarini eslashga va ehtimoliy oqibatlarni tasavvur qilishga harakat qiladilar. Shu tariqa ekologik ma'lumot tanqidiy tafakkur uchun mazmuniy asosga aylanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchi avvalo ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsasi ustida o'ylaydi. Shuning uchun ekologik-tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida real muhit bilan bog'liq vaziyatlar, vizual materiallar, qiziqarli matnlar, kichik tajribalar, taqqoslash topshiriqlari, rasmlar, mini-loyihalar va suhbatga asoslangan tahlil usullari katta ahamiyat kasb etadi. GREEN yondashuvida texnologik ketma-ketlik ham mazmunga, ham tafakkur operatsiyalariga tayangan holda quriladi, avval o'quvchida ekologik hodisaga nisbatan qiziqish va sezgirlik uyg'otiladi, keyin kuzatish va savol qo'yish faollashtiriladi, undan so'ng tahlil, taqqoslash, muhokama va baholash orqali muammoning mohiyati ochib beriladi, yakunda esa o'quvchi o'zining ekologik pozitsiyasini ifodalashga va amaliy xulosa chiqarishga yo'naltiriladi.

GREEN yondashuvi asosidagi texnologiya ekologik-tanqidiy fikrlashning bir necha muhim ko'rsatkichlarini rivojlantiradi. O'quvchining kuzatuvchanligi ortadi. U atrof-muhitdagi o'zgarishlarga befarq bo'lmaydi, tabiatdagi muvozanatni sezishga o'rganadi. Savol berish

¹ UNICEF, Digital Literacy for Children: Exploring Definitions and Frameworks, 41 P. 13-page.

madaniyati shakllanadi. Bu esa tanqidiy fikrlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish qobiliyati rivojlanadi. Masalan, chiqindining ko'payishi, suvning ifloslanishi yoki daraxtlarning kamayishi boshqa ko'plab ekologik va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq ekanini anglash boshlanadi. O'quvchi baholash mezonlarini o'zlashtiradi, qaysi xatti-harakat ekologik jihatdan foydali, qaysi biri zararli ekanini ajrata oladi. Yechimga yo'naltirilgan fikrlash shakllanadi. Ya'ni bola muammoni ko'rish bilan cheklanmaydi, uni kamaytirish yoki oldini olishga doir oddiy, ammo maqsadli takliflar ilgari surishga intiladi. Aynan mana shu ko'rsatkichlar ekologik bilimni ekologik dunyoqarashga, dunyoqarashni esa ekologik mas'uliyatga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

“Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning bilimni qayta ayta olishini, o'rganganlarini yangi vaziyatlarda qo'llay olishini ham anglatadi”². Bu boshlang'ich sinf darslarining mazmuniga singdirilgan holda amalga oshirilganda yanada samarali bo'ladi. “Tanqidiy va kreativ fikrlash bir-biridan mustaqil mavjud bo'lmaydi, kreativ fikrlash yangi g'oyalarni keltirsa, tanqidiy fikrlash yangi g'oyaga tanqidiy jihatdan qaraydi”³. Masalan, o'qish savodxonligi darsida tabiat, suv, daraxt, jonivorlar yoki insonning tabiatga munosabati haqidagi matnlar tanlanib, ular yuzasidan muallif g'oyasini aniqlash, qahramon xatti-harakatini baholash, vaziyatning ekologik oqibatlarini tushuntirishga doir savollar beriladi. Ona tili darsida ekologik mazmundagi gaplar, matnlar va ifodalar ustida ishlash orqali o'quvchi fikrni izchil va asosli bayon qilishga o'rganadi. “Og'zaki faoliyatda ona tilidan tayanch sifatida foydalanish yaxshiroq tushunish, yuqori darajali fikrlash, tanqidiy tahlil va ijodiy ifodani rivojlantiradi”⁴. Matematika darsida suv sarfi, daraxt ekish soni, chiqindi miqdori, energiya tejalishi bilan bog'liq amaliy masalalar berilib, sonli ma'lumotlar orqali ekologik muammo va yechimlar tahlil qilinadi. Tabiatshunoslik darsida esa kuzatish, tajriba, taqqoslash va xulosa chiqarish elementlari kuchaytiriladi. Shu tariqa GREEN yondashuvi ekologik mazmundagi tarbiyaviy vazifalarni fanlararo integratsiya asosida tafakkuriy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi. Bu esa boshlang'ich ta'limning kompetensiyaviy yo'nalishiga to'la mos keladi.

GREEN yondashuvi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi zamonaviy ta'lim oldida turgan bir qator strategik vazifalarga javob beruvchi innovatsion pedagogik yechimdir. U ekologik savodxonlikni tanqidiy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi, fanlararo integratsiyani kuchaytiradi, o'quvchini faol subyektga aylantiradi, dars mazmunini real hayot bilan bog'laydi va yosh avlodda mas'uliyatli ekologik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyani boshlang'ich ta'lim amaliyotiga izchil joriy etish orqali fikrlash sifati, ekologik sezgirliги va ijtimoiy mas'uliyati ham rivojlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Nodirjonovna, B. M. (2025). Tanqidiy fikrlash va kreativ fikrlash: farqi va o'zaro bog'liqligi. *Shokh Articles Library*, 1(1).
2. OECD, PISA 2018 Assessment and Analytical Framework, 308 P. 13-page.

² OECD, PISA 2018 Assessment and Analytical Framework, 308 P. 13-page.

³ Nodirjonovna, B. M. (2025). Tanqidiy fikrlash va kreativ fikrlash: farqi va o'zaro bog'liqligi. *Shokh Articles Library*, 1(1).

⁴ UNICEF, Language of Instruction in Foundational Literacy & Numeracy Programs: The Basics, 100 P. 88-page.

3. UNICEF, Digital Literacy for Children: Exploring Definitions and Frameworks, 41 P. 13-page.
4. UNICEF, Language of Instruction in Foundational Literacy & Numeracy Programs: The Basics, 100 P. 88-page.